	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parnonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafroz Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish.....	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндиқов Алишер Алеуатдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	
Malaka oshirish jarayonida ta’lim sifatini oshirish masalalari.....	1223
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari	1226
<i>Berdiyeva Muhabbat Meliyevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozish ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda modellashtirishning ahamiyati	1229
<i>Eshbekova Gulbahor</i>	

STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	1233
G'afforova Xurriyat Yangiboyevna	
Kimyo fani o'rganuvchilari ongida moddalarning hosil bo'lish jarayonining mazmun-mohiyatini ularning genetikasiga asoslab tushuntirish.....	1238
Jabbarova Dilafro'z Bo'riyevna	
Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Qudratovna	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
Maxmudov Azamjon Muxtorovich	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'Ichiyev Shaxriyor Xusanovich	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
Raxmatov A'zam Ashur o'g'li	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
Sharipova Sarvinoz Sayid qizi	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
Usmonova Mohizoda Avazjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
Xomidova Dilorom Abduraxmonovna	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
Суюрова Айнур Ибодуллаевна	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
Kilichev Nurulla Abbosovich	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
Abdushukurova Mushtariy	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
Нумонжоннова Фарангиз Комиловна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari.....	1321
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyani o'rganish va korreksiyalash	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
<i>Mirzayeva Dilafuz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	



Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida)	1419
Sotkulova Dildora Odinabekovna	
Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati	1423
Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova	
Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish	1427
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	
Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar	1430
Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna	
Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli	1436
Yunusova Diloramxon Abdumajitovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari	1440
Aripova Nodira Shuxratovna	
Методы развития устной речи детей дошкольного возраста	1444
Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи	



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TA'LIMIIY FAOLIYATLARNI TAHLILINI OLIB BORISHDA TARBIYACHILAR KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna
Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish jarayonida tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishga doir zamonaviy yondashuvlar ilmiy-metodik asosda tahlil qilingan bo'lib, unda pedagogik monitoring, ta'limiy jarayonni baholash mexanizmlari, pedagog kadrlar malakasini rivojlantirishning innovatsion modeli, shuningdek, ta'limiy faoliyatlar samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi analitik ko'rsatkichlar tizimining ahamiyati yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati, kompetensiya yondashuviga asoslangan tarbiyachi faoliyatining mazmuni, ta'limiy jarayonni tahlil etishning ilmiy-uslubiy asoslari hamda xorijiy tajribalar o'rni ilmiy nuqtai nazardan sharhlanadi. Tadqiqot natijalarida ta'limiy faoliyat monitoringi, diagnostika va baholash jarayonlari tarbiyachi kompetentligining tarkibiy qismi sifatida qayta talqin qilinadi, tarbiyachilarning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari, ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar va ta'lim sifatini oshirishga mas'ul bo'lgan amaliyotchi mutaxassislar uchun metodik va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagogik monitoring, tahlil, kompetensiya, tarbiyachi, baholash, zamonaviy yondashuvlar, diagnostika, innovatsion metodlar, ta'lim sifati, faoliyat tahlili, metodik ta'minot, rivojlantiruvchi muhit.

Abstract: This article provides a scholarly and methodological analysis of modern approaches aimed at enhancing the professional competence of preschool educators in the process of analyzing educational activities. It examines pedagogical monitoring, assessment mechanisms of the educational process, an innovative model for developing the qualifications of pedagogical staff, as well as the significance of analytical indicator systems that help determine the effectiveness of educational activities. The article also scientifically discusses state policies directed toward modernizing the preschool education system of the Republic of Uzbekistan, the essence of competence-based approaches in educators' professional activities, the methodological foundations of analyzing the educational process, and the role of foreign experience. The study reinterprets educational activity monitoring, diagnostics, and assessment processes as integral components of educator competence and develops recommendations for applying methodological technologies that foster educators' analytical thinking skills. This article has methodological and theoretical relevance for preschool education teachers, researchers, and practitioners responsible for improving the quality of education.

Key words: preschool education, pedagogical monitoring, analysis, competence, educator, assessment, modern approaches, diagnostics, innovative methods, quality of education, activity analysis, methodological support, developmental environment.

Аннотация: В данной статье представлен научно-методический анализ современных подходов к повышению профессиональной компетентности воспитателей в процессе анализа образовательной деятельности в системе дошкольного образования. Рассматриваются педагогический мониторинг, механизмы оценки образовательного процесса, инновационная модель повышения квалификации педагогических кадров, а также значение системы аналитических показателей, обеспечивающих определение эффективности образовательной деятельности. В статье научно обоснованы государственная политика Республики Узбекистан, направленная на модернизацию системы дошкольного образования, содержание деятельности воспитателя, основанной на компетентностном подходе, методологические основы анализа образовательного процесса и роль зарубежного опыта. В результате исследования мониторинг образовательной деятельности, диагностика и оценивание интерпретируются как составные элементы компетентности воспитателя. Разработаны рекомендации по применению методических технологий, способствующих развитию аналитического мышления педагогов. Статья имеет методическое и теоретическое значение для педагогов дошкольных образовательных организаций, исследователей и практиков, ответственных за повышение качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагогический мониторинг, анализ, компетентность, воспитатель, оценивание, современные подходы, диагностика, инновационные методы, качество образования, анализ деятельности, методическое обеспечение, развивающая среда.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish tarbiyachining kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ushbu jarayon ta'lim sifati, pedagogik samaradorlik va bolalar rivojlanishining natijaviy ko'rsatkichlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi; ayniqsa so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan konseptual islohotlar tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularda analitik tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'limiy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish talablarini yanada kuchaytirdi.

Mazkur ehtiyojlar davlat siyosati, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, tarbiyachilarning malaka tavsiflari hamda pedagogik monitoring bo'yicha metodik ko'rsatkichlar bilan mustahkamlangan bo'lib, bunda ta'limiy faoliyatni muntazam tahlil qilish, diagnostika va baholashning ilmiy asoslari tarbiyachining kasbiy faoliyatida ajralmas jarayon sifatida qaraladi; zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi pedagogdan faqat bilimli bo'lishni emas, balki tahlil qilish, rejalashtirish, natijalarni baholash, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan mexanizmlaridan foydalanishni talab etadi, shu bois tahliliy kompetensiya tarbiyachining kasbiy kompetentligi tarkibiga chuqur integratsiyalashgan holda qaraladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini baholash va kuzatish, rivojlantiruvchi muhit imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va monitoringini yuritish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirgan tarbiyachi ta'lim sifati oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; mazkur omillarni inobatga olgan holda ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlar tahlili jarayonida tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy asosda yoritiladi, mavjud amaliyot tahlil qilinadi va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarning ta'limiy faoliyatni tahlil qilish kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar xalqaro va mahalliy adabiyotlarda turlicha yondashuvlarda yoritilgan bo'lib, ularning mazmuni pedagogik monitoring, baholash, kuzatish, diagnostika, innovatsion metodlar va kompetensiya yondashuvining integratsiyalashgan ko'rinishlarini o'z ichiga oladi; jumladan, I. V. Groshevaning kuzatish va baholash metodikasiga oid tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining tashxisini aniq mezonlar asosida tashkil etish zaruriyatini asoslab, tarbiyachining analitik faoliyatini raqamli vositalar bilan boyitishning afzalliklarini ko'rsatadi, Popova L. V. tomonidan taklif etilgan metodik ishlar tizimi esa ta'limiy jarayonni tahlil qilishda pedagogning metodik tayyorgarligi, rejalashtirish jarayonini ilmiy asoslash hamda bolalar rivojlanishini baholashda kompleks yondashuvlarni taklif etadi; shuningdek, V. S. Basyuka va E. A. Muxarskoyning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nazorat mexanizmlarini tashkil etish bo'yicha tadqiqotlari tahliliy faoliyatning nazorat-baholash bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib, ta'limiy faoliyat samaradorligini aniqlashda monitoring ko'rsatkichlari va diagnostika usullarining qo'llanishini taklif etadi; innovatsion pedagogik texnologiyalar asoschisi R. J. Ishmuxamedovning ishlarida esa kompetensiyaviy yondashuvning pedagog kadrlar tayyorlashdagi o'rni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, refleksiya va tahliliy fikrlash ko'nikmalarining rivojlantirishga ta'siri yoritilib, tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayonida analitik komponent muhim omil sifatida qayd etiladi.



Mahalliy tadqiqotchilar, xususan, Qodirova F. R. tomonidan maktabgacha pedagogika fani bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar tarbiyachi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, ta'limiy jarayon mazmuni, pedagogik muloqot madaniyati va bolalar rivojlanishini baholash metodikasini tizimli o'rgangan bo'lib, bunda tarbiyachining tahliliy kompetensiyasi pedagog kasbiyligi tarkibida alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi; so'nggi yillarda monitoring va tahlilning zamonaviy modellariga oid M. Fayziyevaning ilmiy ishlari ta'limiy faoliyatni baholashning integrativ yondashuvlari, ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni taqqoslash va tahlil qilishning metodik asoslarini yoritib, maktabgacha ta'limda analitik mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini asoslaydi; bundan tashqari, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan davlat qarorlari, vazirlik buyruqlari va konseptual hujjatlar tarbiyachilarning malaka tavsiflarida tahliliy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida belgilanganini ko'rsatadi, bu esa amaliyotda kompetensiya yondashuvining mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda analitik faoliyatni ilmiy asoslash, tarbiyachilarning tahliliy kompetensiyasini oshirish bo'yicha tizimli tadqiqotlar yetarli bo'lsa-da, zamonaviy texnologiyalar, monitoring platformalari, raqamli diagnostika vositalari va ilmiy-metodik yondashuvlar asosida yangicha integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish jarayonida tarbiyachilar kompetentligini oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni aniqlash, baholash va ilmiy asoslashga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi; tadqiqot jarayonida pedagogik diagnostika, monitoring, kompetensiya yondashuvi, faoliyat yondashuvi, tizimli tahlil, ilmiy kuzatish, pedagogik eksperiment elementlari hamda sifat-miqdoriy ma'lumotlarni qayta ishlash usullari qo'llanildi; metodlar majmuasi sifatida, birinchidan, nazariy-tahliliy metodlar orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, davlat hujjatlari, normativ-me'yoriy bazalar, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilib, maktabgacha ta'limda ta'limiy faoliyatni tahlil qilishning ilmiy asoslari aniqlanadi, kompetensiya yondashuvining mazmuni, tahliliy faoliyat tarkibiy komponentlari, baholash va diagnostika tizimlarining o'ziga xos jihatlari izohlanadi.

Empirik metodlar doirasida maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 70 nafar tarbiyachi, 12 nafar uslubchi, 8 nafar metodist va 4 ta tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mutaxassislaridan iborat guruh bilan suhbat, so'rovnomalar, savol-javob va faoliyatni bevosita kuzatish orqali amaliy ma'lumotlar yig'ildi, bunda tarbiyachilarning tahliliy ko'nikmalari, monitoring yuritish bo'yicha amaliy tayyorgarligi, baholash mezonlaridan foydalanish darajasi aniqlanib, ularning malaka, tajriba va yosh tarkibiga ko'ra farqlanishi ham tahlil qilindi. Diagnostik metodlar asosida tarbiyachilarning tahliliy kompetensiyasi tarkibiy qismlari – ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, taqqoslash, baholash, xulosa chiqarish, rejalashtirish, o'z faoliyatini refleksiv baholash ko'nikmalari bo'yicha 6 bosqichli test–diagnostika ishlab chiqildi, natijalar tarbiyachi tayyorgarlik darajasiga ko'ra quyidagi kategoriyalarga ajratildi: yuqori daraja, yetarli daraja, o'rtacha daraja, past daraja.

Eksperiment–metodik yondashuv asosida 4 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti bazasida zamonaviy tahliliy kompetensiyani rivojlantirish dasturi sinovdan o'tkazildi, unda tarbiyachilar uchun 24 soatlik trening–modullar, amaliy seminarlar, monitoring blankalari, kuzatish jadvallari, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ishlanmalar, refleksiya varaqalari joriy etildi. Statistik qayta ishlash metodlari orqali so'rov va diagnostika natijalari foiz ko'rsatkichlari, dinamik taqqoslash, qiyosiy tahlil, variativ farqlar, regressiya elementlari qo'llangan holda tahlil qilindi, bu esa zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini ilmiy asoslashga xizmat qildi; metodologiyaning mazkur kompleks ko'rinishda qo'llanishi tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida tahliliy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan konseptual mezonlarni belgilashga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatishlar, diagnostika, so'rovlar, metodik tahlillar va eksperimental trening-modullar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning ta'limiy faoliyatni tahlil qilish kompetensiyasi yetarlicha shakllanmaganini, ayniqsa ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, baholash mezonlaridan foydalanish, kuzatish natijalarini tahlil qilish, ta'limiy jarayonni sifat ko'rsatkichlari asosida rejalashtirish borasida sezilarli bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi; so'rov natijalariga ko'ra, tarbiyachilarning 18 foizi tahliliy faoliyatni mustaqil ravishda to'liq bajara oladi, 37 foizi ayrim bosqichlarda uslubchi yoki metodist ko'magiga tayanadi, 45 foizida esa tahliliy faoliyatni olib borish bo'yicha yetarli ko'nikmalar shakllanmagan bo'lib, bu holat maktabgacha ta'lim tizimida monitoring jarayonlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; diagnostik testlar natijasida ishtirokchilarning 21 foizi yuqori darajadagi tahliliy kompetensiyaga ega ekani, 34 foizi yetarli darajada, 28 foizi o'rtacha darajada va 17 foizi past darajada natija ko'rsatgan bo'lib, ayniqsa taqqoslash, tahliliy umumlashtirish, refleksiv baholash ko'nikmalarida past ko'rsatkichlar qayd etildi.

Qo'shma pedagogik kuzatuvlar davomida tarbiyachilarning 64 foizi bolalar faoliyatidagi rivojlanish dinamikasini tizimli ravishda qayd etmasligi, 52 foizi kuzatish jadvallaridan noto'g'ri foydalanishi, 47 foizi esa bolalar rivojlanishidagi muammoli nuqtalarni aniqlashda qiyinchilikka duch kelishi aniqlandi; eksperimental-modul asosidagi treninglar natijasida tarbiyachilarning tahliliy kompetensiyasi sezilarli darajada oshgan bo'lib, xususan, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari 38 foizdan 79 foizga, diagnostika natijalarini talqin qilish ko'nikmalari 42 foizdan 83 foizga, kuzatish mezonlarini qo'llash bo'yicha aniqlik 35 foizdan 87 foizga, rejalashtirishda analitik yondashuv 29 foizdan 76 foizga ko'tarildi; eksperiment davomida tarbiyachilarda tahliliy fikrlashning kuchayishi, reflektiv yondashuvning shakllanishi, o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar – raqamli monitoring vositalari, elektron kuzatish kartalari, rivojlantirish diagnostikasi uchun mobil ilovalar, analitik modullarni qo'llash tarbiyachilarning tahliliy kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, jarayonning aniqligi, tezligi va ishonchligini oshirdi; umumiy natijalar shuni ko'rsatdiki, ta'limiy faoliyatni tahlil qilish bo'yicha tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan monitoring, zamonaviy texnologiyalar, maqsadli treninglar tarbiyachilar kompetensiyasini oshirishda sezilarli samara beradi hamda maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish bo'yicha tarbiyachilar kompetentligining shakllanishida bir qator tizimli omillar, tashkiliy-metodik kamchiliklar va pedagogik yondashuvlardagi tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi; xususan, tahliliy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodik ta'minotning izchil ishlab chiqilmagani, monitoring va diagnostika vositalarining eskirgan talablarga asoslanganligi, tarbiyachilarning bu vositalardan foydalanish bo'yicha amaliy tayyorgarligining pastligi jarayonning samaradorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; shu bilan birga, raqamli ta'lim muhiti keng joriy etilayotgan bir davrda ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida elektron kuzatish, monitoring tizimlari va raqamli diagnostika platformalaridan foydalanish bo'yicha metodik yo'riqnomalarning to'liq shakllanmagani ham tarbiyachilarning tahliliy salohiyatini cheklab qo'yimoqda; tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar faoliyatida kuzatish natijalarini umumlashtirish, bolaning rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlarni aniqlash, taqqoslash asosida xulosalar chiqarish bo'yicha bilimlar yetarli emas, bu esa tahliliy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan reflektiv fikrlashni rivojlantirish zarurligini taqozo etadi; xalqaro tadqiqotlar va xorijiy tajribalar bilan taqqoslash natijasida aniqlanishicha, rivojlangan ta'lim tizimlarida tarbiyachilarning tahliliy kompetensiyasini oshirish bo'yicha xizmat ichida muntazam treninglar, onlayn ilmiy-metodik platformalar, raqamli diagnostika tizimlari, faoliyat natijalarini vizual monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'lgan elektron portfoliolar qo'llanadi.

Bu esa O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi uchun ham dolzarb yo'nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi; ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi tarbiyachilar faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy-tahliliy fikrlash, analitik qaror qabul qilish, muammoli vaziyatni tahlil qilish, ta'limiy faoliyatni modellashtirish kabi chuqur kognitiv ko'nikmalar bilan jihatlanishi lozimligini ko'rsatadi; tadqiqotda sinovdan o'tgan trening modullarining samaradorligi tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini namoyon etdi, xususan, real amaliy vaziyatlar asosida modellashtirilgan topshiriqlar, bolalar faoliyatini videokuzatish orqali tahlil qilish, rivojlanish xaritalari bilan ishlash, refleksiya varaqalari asosida o'z faoliyatini baholash tarbiyachilarning analitik fikrlashini sezilarli kuchaytirdi; shu bilan birga, metodik xizmat faoliyatida ham yangicha yondashuvlar joriy etilishi zarur bo'lib, uslubchilarning tahliliy kompetensiyani rivojlantirishdagi roli, ularning zamonaviy monitoring tizimlari bo'yicha malakasini oshirish, pedagoglarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish borasida takliflar ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud; mazkur muhokamalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar kompetentligini oshirishda tahlil jarayonining markaziy o'rin tutishi, ushbu jarayonni zamonaviy metodlar, raqamli vositalar, ilmiy asoslangan diagnostika va analitik fikrlashni rivojlantirish dasturlari bilan qo'llab-quvvatlash maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim shartlaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish jarayoni tarbiyachilar kasbiy kompetentligining ajralmas va hal qiluvchi tarkibiy qismi ekanini yaqqol ko'rsatdi; ayniqsa, ta'lim sifati, bolalar rivojlanishining dinamikasi, pedagogik jarayonning samaradorligi aynan tahliliy faoliyatning qay darajada ilmiy asoslangan, tizimli va aniq olib borilishiga bevosita bog'liqdir. O'tkazilgan diagnostika, kuzatishlar va eksperimental ishlar shuni tasdiqladiki, tarbiyachilarda tahliliy kompetensiyaning asosiy komponentlari – ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, taqqoslash, baholash, xulosa chiqarish, rejalashtirish va reflektiv o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo'lib, bu jarayonni modernizatsiya qilish zaruriyatini kuchaytiradi. Ayni paytda zamonaviy yondashuvlar – raqamli monitoring platformalari, elektron diagnostika vositalari, bolalar rivojlanishini aniqlashning integrativ mezonlari, modulli treninglar va amaliy seminarlar tarbiyachilarning analitik salohiyatini rivojlantirishda sezilarli samara berishi aniqlandi.



Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan metodik xizmatni kuchaytirish, uslubchilarning tahliliy faoliyatni qo'llab-quvvatlashdagi rolini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida monitoring va baholashning ilmiy asoslangan tizimini yaratish tarbiyachilar kompetentligini yuksaltirishning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilandi. Tadqiqot jarayonida sinovdan o'tgan trening-modullarning samaradorligi tahliliy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion metodlar, real amaliy vaziyatlar asosida modellashtirilgan topshiriqlar, videokuzatish asosida tahlil, refleksiya varaqalari bilan ishlash kabi texnologiyalar sezilarli ijobiy natijalar berishini namoyon etdi. Umumlashtirib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlil qilish bo'yicha tarbiyachilar kompetentligini oshirish – nafaqat pedagogning kasbiy mahoratini yuksaltirish, balki ta'lim sifati, bolalarning har tomonlama rivojlanishi, maktabgacha ta'limning barqaror modernizatsiyasi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlashning muhim omilidir. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llash uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kompetensiyaga asoslangan metodik xizmat faoliyatini takomillashtirish, tahliliy yondashuvni kuchaytirish, tarbiyachilarni muntazam o'qitish va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5179335>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 16-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi 159-son buyrug'i. <https://ru.scribd.com/document/934229614/16-05-2025%D0%B9-159-%D1%81%D0%BE%D0%BD-%D0%B1%D1%83%D0%B9%D1%80%D1%83%D2%93%D0%B8>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori. <https://lex.uz/en/docs/-4327235>
4. Grosheva I. V. Kuzatish va baholash. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2020-yil.
5. Попова Л. В. Методическая работа в дошкольной образовательной организации. Учебное пособие. – Киров, 2020-г.
6. Basyuka V. S., Muxarskoy E. A. Организация контроля в дошкольных образовательных учреждениях. – Moskva, 2013-yil.
7. Ishmuhamedov R. J. Ta'lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Iste'dod", 2008-yil.
8. Qodirova F. R. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013-yil.
9. Fayziyeva M. The Importance of Monitoring and Analysis in Controlling Educational Activities. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2025-yil 6-iyun, 202–207-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.